


KANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMODOLI ILMIY KONFERENSIYA

# YANGI O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ


## INNOVATSIIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI:  
2018-2023



**DAVRIYLIGI:**  
**2018-2023**

## D.I. MENDELEEVNING KIMYOVIY ELEMENTLAR DAVRIY JADVALI



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI PR 1, 2-UY



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



[WWW.TAQIQT.uz](http://WWW.TAQIQT.uz)  
[WWW.CONFERENCES.uz](http://WWW.CONFERENCES.uz)



**FEVRAL  
No 49**

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
5-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-5**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-5**

**ТОШКЕНТ-2023**



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 49-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ**

<b>1. Abduraxmonov Bexruz Muxammadovich, Jamolov Azizjon Axmatovich</b>	
KICHIK KOMANDIRLARNI YETAKCHILIK BOSHQARUVINI RIVOJLANISHINING	
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	7
<b>2. Muxtorov Qodirxon G‘ozixon o‘g‘li</b>	
KIMYOVIY KUCHLI TA’SIR ETUVCHI ZAHARLI MODDALAR .....	9



## ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ

### KICHIK KOMANDIRLARNI YETAKCHILIK BOSHQARUVINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Abduraxmonov Bexruz Muxammadovich**  
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Kichik

mutaxassislar tayyorlash Markazi moddiy  
ta'minot sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik

**Jamolov Azizjon Axmatovich**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar

Kichik mutaxassislar tayyorlash Markazi  
artilleriya sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik

*Annotatsiya:* ushbu maqolada kichik komandirlarni yetakchilik va komandirlik xususiyatlarini  
o'rgatish va tayyorlash to'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* yetakchi, Boshqarish, Avtoritar, Demokratik, Professional, Shaxsiy.

*“Bilagi zo'r birni yengadi, bilimi zo'r mingni yengadi”.*  
**Amur Temur.**

Boshqarish har qanday jamiyatga xos bo'lgan ichki xususiyatdir. Uning tuzilishi va mexanizmlari nihoyatda murakkab bo'lib, jamiyat hayotida amal qilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Boshqarish jamiyat hayotining hamma sohalariga daxl qiladi va uning ta'sirida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Boshqarishga xos bo'lgan obyektiv xususiyat jamiyat rivojlanish qonuniyatlarini talablariga muvofiq amal qiladi. Boshqarish qanday shakllarda olib borilishi va amal qilishidan qat'iy nazar, u siyosiy mohiyatga ega bo'ladi. Boshqarishning siyosiy mohiyati boshqarish va rahbarlikni siyosat sub'ektlari tomonidan oshirilishi bilan belgilanadi. Siyosatning har bir sub'ekti boshqarishda ma'lum darajada ishtirok etadi. Boshqarishning siyosiy mohiyati jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Agar boshqarish faoliyati jamiyat hayotida ro'y beradigan voqeа-hodisalar, o'zgarishlarga ta'sir qilmasa va ular harakatidan maqsadga muvofiq ravishda foydalanilmasa, jamiyat rivojlanishi izdan chiqadi. Insoniyatning butun tarixi kishilarning tabiat va jamiyatning stixiyali harakatiga qarshi kurashdan iborat bo'lib kelgan. Ibtidoiy munosabatlardan mulkchilik munosabatlariga o'tilishi va dastlabki quzdorlik davlatining paydo bo'lishi boshqarishning siyosiy mohiyat kasb etishi uchun asos bo'lgan. Davlat siyosatning sub'ekti sifatida jamiyat hayotini boshqarishni o'z zimmasiga olgan va davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar siyosiy mazmunga ega bo'lgan.

Yetakchilik – siyosiy faoliyat turi bo'lib, u ikki tomonning o'zaro aloqalarini anglatadi: birinchi tomon – yetakchilar o'z izdoshlarining manfaat va ehtiyojlarini biladilar va bayon etadilar, boshqa tomon esa, shu manfaatlarni ifodalash va amalga oshirishlari uchun o'z vakolatlarining bir qismini ularga ixtiyoriy ravishda topshiradilar.

**Zamonaviy siyosiy fanlarda yetakchilikka doir bir qancha yondashuvlar mavjud:**

Yetakchi – bu boshqa kishilarga ta'sir etish demakdir. Yetakchi va uning izdoshlari o'rtasida o'zaro munosabatlar mavjud bo'lib, u yetakchidan guruh a'zolariga qarab har doim bir tomonlama yo'naltirilgan bo'ladi.

Yetakchilik – bu boshqaruvchanlik maqomi, qarorlar qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy pozitsiyadir. Siyosatshunoslar hozirgi zamonda yetakchilarni u yoki bu mezonlarga ko'ra avtoritar va demokratik yetakchilarga ajratadilar:

Avtoritar yetakchilik – tanho yo'naltirilgan ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lib, u sanksiyalar, kuch ishlashni nazarda tutadi. Asosi: odatlar.



Demokratik yetakchilik – rahbar tomonidan guruh yoki tashkilot a’zolarining fikrlari, manfaatlarini hisobga olib, ularning boshqarishda ishtirok etishini ifodalaydi. Asosi: tafakkur, e’tiqod va hissiyotlar.

Yetakchining funksiyalari – uning faoliyatining bosh yo‘nalishidir.

Yetakchilikning asosan quyidagi siyosiy funksiyalari mavjud:

- jamoani jipslashtirish va birlashtirish;
- eng maqbul boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish;
- ijtimoiy hakamlik va patronajlik, qo‘riqchilik, ommani qonun-sizlikdan, amaldorlarning o‘zboshimchaligidan himoya qilish, tartibot va qonunchilikni nazorat, rag‘batlantirish va jazolash choralarini bilan saqlab turish;
- hokimiyat va ommanning muloqoti, siyosiy va hissiy aloqa kanallarini mustahkamlash va shu bilan fuqarolarning siyosiy rahbarlikdan begonalashuvining oldini olish;
- yangilanish tashabbuskor bo‘lgan optimizm va ijtimoiy energiyani to‘plash, omma siyosiy maqsadlarini amalga oshirishga safarbar qilish.

Davlatimiz rahbariyati mamlakatimiz ijtimoiy va iqtisodiy hayotining barcha jabhalarini yuksak darajada boshqarishni tashkil etishiga katta e’tibor qaratadi, rahbar kadrlardan boshqaruv nazariyasini chuqur o‘rganishni, zamonaviy ish usullarini egallahashni, ishga ijodiy yondoshishni va tashabuskor bo‘lishni talab qiladi.

Boshqaruv va rejajashtirishning aniq usullari mamlakat, shuningdek, Qurolli Kuchlar rivojlanishining har bir bosqichidagi hayotiy shart-sharoitlarga mos kelishi kerak. Tabiyki, bu obektiv qonuniyatdir.

Har bir ofitser, Qurolli Kuchlarda qanday lavozimni egallahidan qat’iy nazar, tinchlik davrida ham, jangovar vaziyatda ham, boshqaruv faoliyati bilan doimo bog‘liqdir. Faoliyatning bu turi jamiyat boshqaruvining bir qismi bo‘lib, o‘z xususiyatlariga ega va boshqaruv vazifalarini bajarishda ofitserlardan nafaqat oliy ma’lumotga, balki etarli darajadagi siyosiy va maxsus bilimlarga, nazariy tayyorgarlikka, ma’lum tajribaga ega bo‘lishni talab qiladi.

Shu bilan birga jamoani boshqarish yetakchining siyosiy savodxonligi darajasiga ham bog‘liqdir. Yetakchi siyosiy savodxonligi darjasasi uning boshqaruvda qanchalik siyosiy bilimlarni, qonun va me’yorlarni, boshqarish uslubi va resurslarini o‘zlashtirganligi va ularni amalda qo‘llay olishi bilan belgilanadi.

Hukumatimiz tomonidan mamlakatning XXI asr yosh yetakchi rahbarlarni tayyor-lashga qaratilgan qator dasturlar ishlab chiqilgan. Jumladan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997), «Sog‘lom avlod» davlat dasturi (2001) kabi dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular bugungi kunda amaliyotda o‘z ifodasini topmoqda.

Har bir harbiy boshliq bilimdonlik, yangiliklarni teran his etish, murakkab masalalarni hal qilishda javobgarlikni o‘z zimmasiga ola bilish, tashabbuskorlikni o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy tarkib imkoniyatlarini safarbar qila olish kabi sifatlarga ega bo‘lishi kerak. Qo‘sishlarni boshqarish tizimi har bir harbiy rahbarga qisqa vaqt ichida, axloqiy-ruhiy va jismoniy og‘ir vaziyatlarda teran fikrlash va harakat qila olish qobiliyatini yuklaydi.

Boshqaruvning ruhiy qonuniyatlaridan to‘laroq foydalanish, qo‘l ostidagi xizmatchilar tashabbusini rivojlantirish va undan foydalanish, qo‘yilgan vazifa-larga ijodiy yondashish bu faoliyatning samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan biridir.

Bu imkoniyatlarini bilish, o‘z amaliy faoliyatida ulardan foydalanish haqida doim o‘ylash, ruhiy asoslangan usullarni o‘z faoliyatiga tatbiq etish, qism va bo‘linmalar shaxsiy tarkibini Vatanimizni himoya qilishga tayyorlash vazifasini hal qilishning muhim shartidir.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilar, kichik komandirlar, serjantlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishda emotsional-irodaviy xususiyatlarining vaziyatli bezovtalananish, irodaviy sifatlar, Vatanparvarlik his-tuyg‘ulari, maskulin va feminin xususiyatlarning ta’siri katta ahamiyat kasb etadi. O‘zida ushbu xususiyatlarni rivojlantirishga e’tibor bergen har bir komandir va boshliqlar shaxslararo munosabatlarda muvaffaqiyatga erishadi.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risidagi qarori O‘zbekiston. Toshkent, 2018 yil, 4 avgust № PQ-3898.
2. G‘oziyev E.G‘. Umumiyo psixologiya 1-kitob. Toshkent, -2002 -b. 79-84.



## KIMYOVIY KUCHLI TA'SIR ETUVCHI ZAHARLI MODDALAR

Muxtorov Qodirxon G'ozixon o‘g‘li,

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar

Kichik mutaxassislar tayyorlash Markazi radiatsion, kimyoviy,  
biologik muhofaza sikl katta o‘qituvchisi, podpolkovnik.

**Annotatsiya:** Respublikamiz xalq xo‘jaligida, sanoatning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi korxonalar o‘z ishlab chiqarish jarayonida turli xil kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar (KTEZM) dan foydalanadi. Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalardan foydalanish, ishlab chiqarish yoki transportirovka qilish jarayonida turli sabablarga ko‘ra turli darajadagi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** ishlab chiqarish jarayonida KTEZM lar ishlab chiqaruvchi va ulardan foydalanuvchi sanoat korxonalarini, kimyoviy xavfli ob’ektlar deyiladi.

**Kimyoviy xavfli ob’ekt** – avariylar sodir bo‘lishi yoki buzilishi natijasida KTEZMlarning atrof-muhitga to’kilishi va tarqalishi oqibatida odamlarning, hayvonlarning va o’simliklarning ommaviy zaharlanish holatlarini keltirib chiqaradigan xalq xo‘jaligi ob’ektidir.

**Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar (KTEZM)** - havoda yoki joylarda belgilangan miqdordan ortib ketganda odamlar sog’lig’iga salbiy ta’sir etuvchi yoki o’limga olib keluvchi moddalardir.

KTEZM lar bilan bog’liq avariylar kimyoviy xavfli ob’ektlarda KTEZM ni transportirovka qilish jarayonida yuz beradi va ishchi-xizmatchilar, hamda, ob’ekt yaqinida yashovchi aholi sog’lig’i va turmush tarziga ta’sir etadi yoki odamlarning qurban bo‘lishiga olib keladi.

Respublikamiz xalq xo‘jaligi va sanoat korxonalarida quyidagi KTEZM lar keng ko’lamda ishlatiladi: *xlor, ammiak, kislotalar, oltingugurt angidridi, sian kislotasi, vodorod florid, xlorpikrin, nitrobenzol, vodorod sulfid, akril kislota nitrili, o‘yuvchi natriy, toluol va turli efirlar*.

Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar ishlatuvchi xalq xo‘jaligi ob’ektlarida avariylar kelib chiqqanda va ular oqibatida odamlar hayoti xavf ostida qolganda ularni himoya qilishning asosiy tadbirlari quyidagilardan iborat:

### 1. Fuqarolarni ktezm lardan himoya qilish bo‘yicha asosiy tadbirlar

KTEZMlarni saqlash va foydalanish bo‘yicha muhandislik-texnik tadbirlarni muvofiqlashtirish; kimyoviy xavfli ob’ektlarda avariylar yuz berganda fuqarolarni muhofaza qilish rejalarini ishlab chiqish;

KXOlarda nazorat va kuzatuv, shuningdek, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish kuch va vositalarini doimiy tayyorgarlik holatiga keltirish va ushlab turish;

ob’ekt atrofidagi aholini kimyoviy avariylar sodir bo‘lganda to’g‘ri harakat qilishga tayyorlash.

### 2. Kimyoviy zararlanish hududini o‘rganish.

Kimyoviy zararlanish hududini aniqlash usullarini bilishlari va oldindan aniqlashlari, shamol yo‘nalishi, havo harorati kabi KTEZMlar yo‘nalishi va tarqalishiga intensiv ta’sir ko’rsatadigan meteorologik holatni diqqat bilan kuzatib borishlari zarur.

### 3. KTEZMlarni saqlash, foydalanish va ulardan muhofazalanish bo‘yicha muhandislik-texnik tadbirlarini amalga oshirish.

Kimyo sanoati karxonalarini binolarining konstruktsiyalari hamda texnologik qurilmalarining turlichaligi bilan bir-biridan tubdan farq qilgani holda, ular uchun ko‘p miqdorda o‘zaro bog’langan liniyalarning mavjudligi xarakterlidir va ulardan aqalli bittasining faoliyati to’xtashi butun korxonaning ma’lum muddatga to’xtashiga olib keladi. SHuning uchun avariyasiz ish olib borishni ta’minalashda quyidagi asosiy tadbirlarga alohida e’tibor qaratish zarur:

texnika xavfsizligi talablariga;

truboprovodlarni ekspluatatsiya qilish qoidalariga;

KTEZMlar yuqori bosim ostida saqlanadigan hajmlardan to’g‘ri foydalanishga;

KTEZMlarni yopiq hajmlarda bosim ostida saqlanish qoidalariga katta ahamiyat berish zarur.

### 4. Kundalik kimyoviy nazorat olib borish.

Kundalik kimyoviy nazorat laborator nazorat tarmog’iga kiruvchi va boshqa quyidagi laboratoriylar tomonidan amalga oshiriladi.



Davlat sanitariya-epidemiologik nazorat markazlari laboratoriyalari;  
Veterinariya boshqarmalari va bo'limlari laboratoriyalari;  
Gidrometeorologik laboratoriylar;  
Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi laboratoriyalari;  
Radiatsion-kimyoviy nazorat postlari.

Hududlardagi radiatsion-kimyoviy vaziyatni nazorat qiluvchi laboratoriylar o'z faoliyati davomida uzluksiz ravishda joylarda kundalik kimyoviy nazoratni ta'minlaydilar. Ular KTEZMlardan havoning, joyning, binolarning, qurilmalar, transportlar, shaxsiy himoya vositalari, kiyimlar, oziq-ovqat va suvning zararlanganlik darajasini kimyoviy razvedka asboblari yordamida ulardan namunalar olib, kimyoviy laboratoriylarda tahlil qiladi.

### 5. Kimyoviy razvedka o'tkazish.

Ob'ektlarda avariya yuz bergan joyda mavjud kimyoviy razvedka asboblari yordamida zudlik bilan kimyoviy razvedka o'tkazishni tashkil etadi. Razvedka natijalari favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish va muhofaza tadbirlari o'tkazish uchun rejalar ishlab chiqishga asos bo'ladi.

### 6. KTEZMlar bilan bog'liq vaziyatlarni bartaraf etish.

Avariyalarni bartaraf etish paytida birinchi navbatda zaharli moddalarning atmosferaga tarqalishi va joylarga to'kilishini to'xtatish tadbirlari amalga oshiriladi. Buning uchun kranlar va mahkamlagich qurilmalarni zichlab yopish kerak.

Hajmlar va truboprovodlarda hosil bo'lgan yoriqlarga mos bandajlar va plastirlar qo'yiladi, zarur hollarda yog'och yoki metall tiquinlar qoqib qo'yiladi.

KTEZMni esa soz holdagi hajmlarga haydaladi. Ko'p miqdorda to'kilgan zaharli moddalarni yig'ish uchun yaqin joyda ariqlar va zovurlar qaziladi.

**Xlor fizik-kimyoviy xossalari.** O'ziga xos sarg'ish-yashil, o'tkir hidli gaz. Suvda kam eriydi, bosim ostida suyuq holda tashiladi. Havodon 2,5 marta og'ir, shu sababli atmosferaning pastki qismida yig'iladi. Zaharlash kontsentratsiyasi-0,01mg/l. O'ldirish kontsentratsiyasi-0,1 mg/l. Havoda 5-10 mg/l kontsentratsiyada o'lim birdan yuz berishi mumkin.

**Ta'siri.** Bug'lari bilan to'qnashganda shilliq qavat (ko'z, nafas yo'llari, burun) kuyishi natijasida ko'krakda o'tkir og'riq, quruq yo'tal, qorinda ichburug' paydo bo'ladi. Ko'zni achishtiradi.

**Ammiak fizik-kimyoviy xossalari.** Bo'g'uvchi o'tkir hidli rangsiz gaz, havoga tarqalganda tutaydi. Suyultirilgan holda tashiladi, suvda eriydi. Ammiakli idishlar qizdirilganda, hamda bug'lari havo bilan aralashganda portlashi mumkin. Sezish kontsentratsiyasi-0,037 mg/l Binodagi yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan kontsentratsiyasi-0,02mg/l, aholi yashaydigan joyda 0,0002 mg/l, 1 soatli ekspozitsiyada zaharlash darajasi 0,25 mg/l, o'limga olib keluvchi kontsentratsiyasi 3,8 mg/l. 50-100 mg/l dozada shu zahoti o'lim yuz beradi.

**Ta'siri.** Asosan nafas a'zolariga ta'sir qiladi. Nafas olish qiyinlashadi, yurak va tomir urish chastotasi buziladi, ko'z achishadi va yosh oqa boshlaydi.

### Adabiyotlar

1. Suyarov Z.X. va boshqalar. Kimyoviy qo'shinlar serjanti darsligi. –T.: Talqin, 2006. - 351 b.
2. Suyarov Z.X. va boshqalar. Ommaviy qirg'in qurollari va ulardan himoya qilish. –T.: O'qituvchi , 2005. - 303 b.
3. RKB muhofaza qo'shinlari serjantlar darsligi.
4. Razvedka ma'lumotlariga asosan radiatsion, kimyoviy vaziyatni baholash.

# **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 5-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиши муддати: 28.02.2023

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000